

O‘ZBEK TILINING SPORT FAOLIYATIDA QO‘LLANILISHINING LINGVISTIK VA KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI

Jo‘rayeva Matluba,

“TIQXMMI” MTU

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18785555>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilining sport faoliyatidagi qo‘llanilishi, sport terminologiyasining shakllanishi, kommunikativ va funksional xususiyatlari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Sport sohasi zamonaviy jamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, unda til asosiy kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotda sport terminlarining yasash usullari, o‘zlashma va milliy terminlarning o‘zaro munosabati, sport nutqining og‘zaki va yozma shakllari hamda sport mutaxassislarining professional nutqi o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, sport terminologiyasi o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari hamda boshqa tillardan o‘zlashish jarayonlari asosida rivojlanmoqda.

Kalit so‘zlar: sport terminologiyasi, o‘zbek tili, professional nutq, kommunikatsiya, termin, sport lingvistikasi.

Annotation. This article analyzes the linguistic and communicative features of the Uzbek language in sports activities. Sport is one of the important social institutions of modern society, where language serves as the main means of communication. The study examines the formation of sports terminology, methods of term creation, interaction between borrowed and native terms, and the characteristics of professional speech in sports. The findings show that Uzbek sports terminology develops through both internal linguistic resources and borrowing processes influenced by globalization.

Keywords: Uzbek language, sports terminology, professional communication, linguistics, terminology.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвистические и коммуникативные особенности применения узбекского языка в сфере спорта. Спорт является важным социальным институтом современного общества, где язык выполняет основную коммуникативную функцию. В исследовании рассматриваются процессы формирования спортивной терминологии, способы словообразования, а также особенности профессиональной речи в спортивной сфере.

Ключевые слова: узбекский язык, спортивная терминология, профессиональная речь, коммуникация, терминология.

Kirish. Til jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo‘lib, inson faoliyatining barcha sohalarida, jumladan sport sohasida ham muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Sport faoliyatida murabbiy, sportchi, hakam, sharhlovchi va tashkilotchilar o‘rtasidagi samarali aloqa til orqali amalga oshiriladi. Til nafaqat axborot almashish vositasi, balki kasbiy tajribani uzatish, sport strategiyasini tushuntirish va musobaqalarni boshqarish vositasi hamdir.

Zamonaviy tilshunoslikda terminologiya muhim ilmiy yo‘nalish hisoblanib, har bir kasbiy sohaning o‘ziga xos termin tizimi mavjud. Terminlar ma’lum bir sohaning ilmiy tushunchalarini aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Sport sohasi ham o‘ziga xos terminologik tizimga ega bo‘lib, bu tizim sport turlarining rivojlanishi bilan kengayib bormoqda

Bugungi globallasuv sharoitida sport xalqaro kommunikatsiya vositasiga aylanganligi sababli, sport terminlarining katta qismi ingliz va boshqa tillardan o'zlashgan. Shu bilan birga, o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida yangi terminlar yaratish jarayoni ham davom etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot quyidagi metodlarga asoslandi:

lingvistik tahlil metodi;

terminologik tahlil;

qiyosiy metod;

funksional-kommunikativ tahlil;

sport nutqi namunalarini kuzatish metodi.

Tadqiqot obyekti sifatida sport sohasida qo'llaniladigan o'zbek tilidagi terminlar va nutq birliklari tanlandi.

Sport faoliyatida o'zbek tili quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Kommunikativ funksiya. Sport jarayonida murabbiy va sportchi o'rtasidagi ko'rsatmalar, mashg'ulot rejasi, taktika va strategiya til orqali yetkaziladi.

Masalan: "tezlikni oshir", "himoyaga qayt", "zarba ber",

Bu birliklar sport faoliyatida tezkor va aniq kommunikatsiyani ta'minlaydi.

2. Informativ funksiya. Sport yangiliklari, musobaqa natijalari, reglament va qoidalar til orqali bayon qilinadi. Masalan: musobaqa nizomi, final bosqichi va jamoa tarkibi

3. Terminologik funksiya. Sport tilida maxsus terminlar muhim rol o'ynaydi. Masalan: futbol: penalty, ofsayd, uzatma; basketbol: dribbling, blok, to'p uzatish; kurash: usul, gilam va hakam.

Bu terminlar professional tushunchalarni aniq ifodalaydi.

Sport terminlari quyidagi manbalar asosida shakllanadi:

1. O'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida. Masalan: uzatma, himoya, hujum, musobaqa. Bu terminlar milliy til asosida yaratilgan.

2. O'zlashma terminlar. Ko'plab sport terminlari ingliz va rus tillaridan kirgan: futbol, basketbol, trener, record. Bular ko'plab xorijiy so'zlar sport va boshqa sohalarda faol qo'llanilib, kundalik nutqning bir qismiga aylangan.

3. Termin yasash usullari. Sport terminlari quyidagi lingvistik usullar orqali yaratiladi:

Affiksatsiya. Masalan: yuguruvchi, himoyachi, so'z birikmasi orqali, jamoaviy o'yin, yakka kurash.

Semantik yo'l bilan. Oddiy so'zning termin ma'nosida qo'llanishi: masalan: gilam (kurash maydoni), zarba kabi.

Insonni jamiyatda tanitadigan, uning kimligini namoyon etadigan eng muhim mezonlardan biri — nutqidir. Qanday gapiradi, so'zlarni qanday tanlaydi, fikrini qay darajada aniq va odob doirasida ifoda etadi — ularning barchasi shaxsning ichki dunyosi,

tarbiyasi va ma'naviy saviyasini ko'rsatadi. Shuning uchun ham nutq madaniyati shaxs ma'naviyatining eng yaqqol ko'zgusi hisoblanadi.

Nutq madaniyati — bu faqat grammatik jihatdan to'g'ri gapirish emas. U, avvalo, so'zga mas'uliyat bilan qarash, fikrni o'ylab aytish, suhbatdoshni hurmat qilish, vaziyatga mos ohang va uslubni tanlay bilishdir. So'z — qudratli kuch. U inson qalbini ko'tarishi ham, uni sindirishi ham mumkin. Demak, so'zdan oqilona foydalanish — yuksak ma'naviyat belgisidir.

Har bir soha vakili o'z kasbiy faoliyatida faqat bilim va malakaga emas, balki to'g'ri, aniq va ta'sirchan muloqot qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak. Mutaxassisning nutqi uning kasbiy saviyasi, madaniyati va shaxsiy fazilatlarini namoyon etadi. Shu bois, kommunikativ sifatlari har bir mutaxassis uchun muhim kasbiy ko'nikma sanaladi.

Sport mutaxassisining nutqi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

Aniqlik (buyruq va ko'rsatmalar aniq bo'lishi kerak), qisqalik (sport jarayonida vaqt cheklangan bo'ladi), emotsionallik (motivatsiya berish muhim)

Masalan: “Tezroq harakat qil!” “Pozitsiyani saqla!”

Sport nutqining og'zaki va yozma shakllari mavjud. Og'zaki nutq - murabbiy nutqi, sport sharhlovchisi nutqi va sportchi muloqoti. Yozma nutq - sport hujjatlari, reglament, sport maqolalari.

Tilning boyligi, zamonaviyligi va rivojlanganligi ko'p jihatdan uning terminologik tizimi bilan belgilanadi. Terminlar tilning ilmiy, texnik, sport, tibbiyot, iqtisodiyot kabi maxsus sohalarda to'g'ri va aniq ishlatilishini ta'minlaydi.

O'zbek tilida terminologiyani rivojlantirish mustaqillik davridan boshlab davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu bilan birga terminologiyaning yutuqlari bilan bir qatorda kamchilik va muammolari ham borligi kuzatilmoqda.

Sport terminologiyasining ham bugungi kunda quyidagi muammolari mavjud:

1. terminlarning yagona standartining yo'qligi;
2. o'zlashma terminlarning haddan tashqari ko'pligi;
3. milliy terminlarning kam qo'llanishi.
4. Sport terminlari hali to'liq leksikografik va sotsiopragsmatik jihatdan o'rganilmagan.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

1. sport terminologiyasi o'zbek tilining faol rivojlanayotgan qatlamidir;
2. sport nutqi professional kommunikatsiyaning muhim qismidir;
3. sport terminlari milliy va o'zlashma birliklardan tashkil topgan;
4. sport tilini standartlashtirish zarur.

Xulosa. O'zbek tilining sport faoliyatida qo'llanilishi uning funksional imkoniyatlarining kengligini ko'rsatadi. Sport terminologiyasi tilning rivojlanayotgan qatlamlaridan biri bo'lib, u milliy til boyligini kengaytiradi. Sport sohasida o'zbek tilidan to'liq va samarali foydalanish milliy til nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda sport

terminlarining lugʻatini yaratish, ularni standartlashtirish va ilmiy jihatdan chuqur oʻrganish muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Mahmudov N., Rafiyev A., Yoʻldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. (Darslik)- Toshkent: Choʻlpon, 2013.
2. Raxmonov N.N. Oʻzbek tilining sohada qoʻllanishi. F., Fer-teach, 2024-yil.
3. H.A. Dadaboyev. Zamonaviy oʻzbek leksikografiyasi va terminologiyasi. Toshkent, 2016.
4. Oʻzbek tilidagi sport atamalarining izohli lugʻati. Toshkent, 2025.

